QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 8-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

https://doi.org/10.70728/a.series.ijt.v08.i08.031

YODGORA NASRIDDINOVANING O’ZBEKISTON SSR OLIY SOVETI PREZIDIUMIDAGI FAOLIYATI

Xakimjonova Nilufar G’offorjon qizi
Tarix fani bo’yicha tadqiqotchi, PhD izlanuvchisi
nilufarxakimjonova265@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada O’zbekiston SSR tarixida birinchi rahbar ayol maqomiga erishgan va O’zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumida alohida boshqaruv qobilyati bilan o’zidan o’chmas iz qoldirgan Yodgora Nasriddinovaning ijtimoiy va siyosiy hayoti tahlil qilinadi. Shuningdek, Yodgora Nasriddinovaning rahbarlik faoliyati davomida amalga oshirgan islohotlari, aholining ijtimoiy hayotini yaxshilashga qaratilgan tadbirlari va yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish borasida qabul qilingan qarorlari ilmiy va rasmiy manbalar orqali tahlil qilinadi. Ilmiy maqolada adabiyotlar sharhi, tadqiqot metodologiyasi, natijalar va umumiy muhokama qismi keltirilib, Yodgora Nasriddinovaning siyosiy faoliyati zamonaviy davr nuqtai nazaridan kelib chiqib yoritiladi.

Kalit so’zlar: O’zbekiston SSR, yoshlar siyosati, siyosiy barqarorlik, Prezidium qarorlari, rahbarlik qobilyati, kadrlar siyosati, Qizil O’zbekiston, davlat arboblari.

Аннотация: В данной научной статье анализируется общественно-политическая деятельность Ядгоры Насритдиновой, которая вошла в историю Узбекской ССР как первая женщина-руководитель и оставила заметный след в деятельности Президиума Верховного Совета Узбекской ССР благодаря своим организаторским и управленческим способностям. Особое внимание уделяется реформам, осуществлённым в период её руководящей деятельности, мероприятиям, направленным на улучшение социального положения населения, а также решениям в сфере повышения духовно-нравственного уровня молодёжи. Данные вопросы анализируются на основе научных и официальных источников. В статье представлены обзор литературы, методология исследования, результаты и их общее обсуждение. Политическая деятельность Ядгоры Насритдиновой рассматривается с учётом современных научных подходов и исторических оценок.

Ключевые слова: Узбекская ССР, молодёжная политика, политическая стабильность, решения Президиума, управленческие способности, кадровая политика, газета “Кизил Узбекистан”, государственные деятели.

Abstract: This scientific article analyzes the socio-political activities of Yodgora Nasriddinova, who became known in the history of the Uzbek SSR as the first woman leader

and left a significant mark on the activities of the Presidium of the Supreme Soviet of the Uzbek SSR through her organizational and managerial abilities. Particular attention is paid to the reforms implemented during her leadership, measures aimed at improving the social well-being of the population, and decisions adopted to promote the spiritual and moral development of young people. These issues are examined on the basis of scholarly and official sources. The article presents a review of the relevant literature, research methodology, findings, and general discussion. Yodgora Nasriddinova’s political activities are examined from the perspective of contemporary scholarly approaches and historical assessments.

Keywords: Uzbek SSR, youth policy, political stability, decisions of the Presidium, managerial abilities, personnel policy, Qizil O‘zbekiston, statesmen.

Kirish. Yodgora Nasriddinova o’zbek ayollari orasida juda yuqori cho’qqiga erishgan va qat’iyatli siyosatchi darajasida tanilgan tarixiy shaxsdir. Tarixning murakkab va ziddiyatli voqeliklari davrida yashab, davlat va jamoat arbobi sifatida faoliyat yuritgan Yodgora Sodiqovna Nasriddinova nafaqat O’zbekistonda, sobiq SSSR da, balki butun Sharqda parlament raisi lavozimida ishlagan birinchi ayoldir. Yodgor Nasriddinova 1920-yilning 26-dekabrda Farg’ona vodiysining Qo’qon shahrida tavallud topdi. Yodgora Nasriddinova O’zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi bo’lgan davrda davlatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayotiga daxldor bo’lgan bir necha qarorlar qabul qilinishiga rahbarlik qilgan.

Yodgora Nasriddinovaning o’zi ham kambag’al oilada og’ir va mashaqqatli mehnati evaziga voyaga yetgani uchun sovet hokimyatining sotsizlizm qurish, feodal va mustamlaka o’tmish qoldiqlarini bartaraf etish g’oyasi ostida amalga oshirilgan harakatlarda faol ishtirok etgan.

O’zbekiston SSR Oliy Soveti Prezezidiumi rahbari bo’lgan Yodgor Nasriddinova Respublika ijtimoiy hayotini tartibga solish, sanoatni rivojlantirish, ishchilarni munosib taqdirlash va ularning siyosiy ongi va faolligini oshirishga doir qator tadbirlarni amalga oshirishda bosh bo’ladi. Nasriddinova rahbarlik faoliyati davomida yosh avlodni ma’naviyatini yuksaltirishga qaratilgan bir necha qarorlar qabul qilinishida tashabbusni o’z qo’liga oladi. Uning natijasi sifatida, respublikada 7 yoshdan 16 yoshgacha bo’lgan barcha bolalar va o’smirlar uchun umumiy majburiy sakkiz yillik ta’limning joriy qilinishi O’zbekiston maktablarini qayta qurishda amaliy qadam bo’ladi.

Yodgora Nasriddinova 1959-1970 yillar davomida O’zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi sifatida Sharof Rashidovdan so’ng faoliyat yuritgan. Bu davrlar mobaynida Nasriddinova siyosiy barqarorlikni ta’minlash, maorifni yuksaltirish, Respublika aholisining ijtimoiy hayotini yuksaltirish va ayollar faolligini oshirish kabi muhim natijalarga erishiladi. Uning rahbarlik lavozimidagi faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, O’zbekiston SSR da nafaqat siyosiy hayot balki ijtimoiy va ma’naviy sohalar ham anchayin jonlanib, muammolar o’z yechimini topganini ko’rishimiz mumkin.

Ishbu ilmiy maqolaning asosiy maqsadi – Yodgora Nasriddinovaning O’zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumiga rahbarlik qilgan davr mobaynida amalga oshirilgan ijtimoiy-

siyosiy tadbirlarni ilmiy manbalar orqali tahlil qilish va Nasriddinovaning ayanchli hayot yo’lini yoritishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili

Yodgora Nasriddinovaning hayoti va faoliyati haqidagi ma’lumotlarni biz asosan Sovet davrida yaratilgan manbalar va mustaqillik davri tarixchilarining ilmiy ishlarida, monografiyalarda uchratishimiz mumkin. Dastlab Sovet davrida rahbarlik qilgan shaxslar hayoti to’liq yoritilmagan yoki yoritilgan bo’lsada nihoyasiga yetmagan. Mustaqillik davriga kelib bunday rahbarlar hayoti va faoliyatini yoritish dolzarb mavzuga aylandi. Sovet davri tarixshunosligida Yodgora Nasriddinovaning asosan siyosiy faoliyati va partiya boshqaruvidagi o’rniga ko’proq ahamiyat qaratilgan.

Mustaqillik davri ilmiy manbalarida Nasriddinovaning butun shaxsiyati hayoti va faoliyatiga alohida e’tibor qaratilib, sharqdagi birinchi parlament raisi sifatida tilga olindi. Shuningdek, Nasriddinova bilan ayni bir davrda faoliyat olib borgan davlat arboblari Usmon Yusupov, Sharof Rashidov kabi rahbar shaxslarning o’zaro munosabatlari, yozishmalari ham yoritila boshlandi.

Alohida takidlab o’tish mumkinki, Yodgora Nasriddinova faoliyati bilan bog’liq ilmiy adabiyotlar mavjud lekin uning butun rahbarlik faoliyati va amalga oshirgan tashabbuslari haqida bir butun monografiya yoki ilmiy adabiyot hali mavjud emas. Ushbu ilmiy tadqiqot mazkur muammoni oz bo’lsada yechishga qaratilgan.

Materiallar va metodlar

Tadqiqot davomida mavzuni kengroq yoritish uchun bir nechta metodlardan foydalanildi:

Tarixiylik metodi – shaxs faoliyatini o’z davrini siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayot bilan bog’liq holda tahlil qilish maqsadida.

Tarixiy – qiyosiy metod – shaxs faoliyatini boshqa zamondosh bo’lgan rahbar shaxslar yoki turli davrlardagi o’xshash shaxslar bilan taqqoslash uchun.

Biografik metod – shaxsning hayot yo’li, ta’limi, mehnat faoliyati va qarashlarining shakllanishini o’rganishda.

Manbashunoslik metodi – arxiv xujjatlari, rasmiy xujjatlar, davriy matbuot, xotiralar va ilmiy adabiyotlarning ishonchliligini tahlil qilish uchun.

Asosiy qism

Mavzuni yoritishda arxiv xujjatlari, rasmiy xujjatlar, davriy matbuot manbalari, ilmiy monografiya va maqolalardan foydalanildi.

Yodgora Nasriddinovaning O’zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumiga rahbarlik faoliyati 1959-yildan boshlanadi. U bu lavozimga ayni shu davrdagi taniqli davlat arboblaridan biri SHarof Rashidovdan keyin tayinlanadi. Rahbarlik faoliyati davomida Yodgora Nasriddinova bor kuch g’ayrati bilan respublikadagi barcha sohalarda ijobiy o’zgarishlar qilishga erishadi. Ijtimoiy va siyosiy sohalarda barqarorlikka, aholini yashash tarzini yaxshilashga qaratilgan bir nechta qonun loyihalarini ishlab chiqadi va amaliy bajarilishiga o’zi bosh bo’ladi. Bir nechta viloyat va tumanlarda aholi bandligini taminlash maqsadida ayollar uchun o’quv kurslari tashkil etiladi. Xotin – qizlarning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish uchun alohida imkoniyatlar yaratiladi. 1960-yil Respublika davlat

boshqaruvi tizimini takomillashtirish va qonunchilik faoliyatini muvofiqlashtirish ishlari amaga oshirildi. Oliy Sovet sessiyalarida sanoat va qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga oid qarorlar tasdiqlanib, ijrosi ta’minlandi. 1961-yil yetti yillik (1959–1965) iqtisodiy rejaning O‘zbekistondagi ijrosini nazorat qilishda Prezidium faol ishtirok etadi. Yangi sanoat korxonalari, uy-joy va ijtimoiy obyektlar qurilishi davlat darajasida qo‘llab-quvvatlanishida Yodgora Nasriddinova jonbozlik ko’rsatadi. 1963-yil fan, ta'lim va sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qarorlarni rasmiylashtirishda shaxsan Nasriddinova qatnashdi va muhim o’zgarishlarga erishdi. Respublikaning ittifoqdosh respublikalar bilan hamkorlik aloqalari esa birmuncha kengaydi. 1966-yil 26-aprel 1966-yil Toshkent zilzilasi sodir bo’ladi, zilziladan keyin favqulodda davlat boshqaruvi choralari ko'rildi. Aholini uy-joy bilan ta'minlash, yangi turar joy massivlari, maktab va shifoxonalar qurilishi bo'yicha qabul qilingan davlat qarorlarini amalga oshirishda Yodgora Nasriddinova yangi istiqbolli rejalar ishlab chiqadi va o’zi muhandis bo’lgani uchun ham bu vazifani muvaffaqiyatli yakunlashga erishadi.

Natijalar

Ushbu ilmiy tadqiqot natijalari Yodgora Nasriddinovaning O’zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumiga rahbarlik faoliyati va shu yillarda amalga oshirilgan tadbirlarning o’sha davr uchun juda muhim ekanligini ko’rsatdi. Mazkur yillarda qabul qilingan qarorlar va chaqirilgan bir nechta sessiyalarning asl maqsadini o’rganish va tahlil qilish juda dolzarb va muhimdir. O’rganilgan ma’lumotlar shuni tasdiqlaydiki Yodgora Nasriddinova o’zining rahbarlik faoliyati davomida davrning qiyinchiliklariga qaramay juda ahamiyatli qarorlar qabul qilinishiga va aholi farovonligini ta’minlashga erishadi.

U davlat hokimiyatining oliy vakillik organi faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bir qatorda, qabul qilingan huquqiy hujjatlarning amaliy ijrosini ta'minlashga ham alohida e'tibor qaratgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, uning rahbarligi davrida ta'lim, sog‘liqni saqlash va madaniyat sohalarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan. Ayniqsa, qishloq hududlarida ijtimoiy infratuzilmani kengaytirish, aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash hamda umumiy o‘rta ta'lim tizimini rivojlantirishga oid tadbirlar amalga oshiriladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari Yodgora Nasriddinovaning xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash borasidagi faoliyati muhim ahamiyat kasb etganini ko‘rsatadi. Uning tashabbuslari natijasida ayollarning davlat boshqaruvi, fan, ta'lim va ishlab chiqarishdagi ishtiroki kengaygan. Bu esa respublikada malakali ayol mutaxassislar va rahbar kadrlar sonining ortishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatgan.

Prezidium raisi sifatida olib borgan xalqaro faoliyati ham O‘zbekiston SSRning ittifoq va xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlashga xizmat qilgan. Turli davlat delegatsiyalari bilan uchrashuvlar, parlamentlararo aloqalar va madaniy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan ishlar respublikaning tashqi aloqalarini kengaytirishda muhim omillardan biri bo‘lgan.

Muhokama

Olingan natijalar Yodgora Nasriddinovaning faoliyatiga baho berishda tarixiy voqelikni davr sharoitidan ajratib bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Chunki u faoliyat yuritgan

yillarda O‘zbekiston SSR sobiq ittifoqning markazlashgan siyosiy tizimi tarkibida bo‘lib, respublika rahbarlarining vakolatlari muayyan darajada cheklangan edi. Shunga qaramay, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali u ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlagan. Yodgora Nasriddinova faoliyatini faqat siyosiy rahbar sifatida emas, balki ijtimoiy islohotlarni qo‘llab-quvvatlagan davlat arbobi sifatida ham baholash maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, ta'lim tizimini rivojlantirish, ayollar faolligini oshirish va madaniy taraqqiyotni rag‘batlantirish yo‘nalishlaridagi ishlari uning boshqaruv uslubining muhim jihatlarini namoyon etadi.

Shu bilan birga, ayrim tarixiy manbalarda uning faoliyati sovet mafkurasi ta'sirida bir tomonlama yoritilganligi kuzatiladi. Mustaqillik davri tarixshunosligi esa ushbu masalaga yangicha yondashib, davlat arbobining xizmatlarini tarixiy xolislik tamoyili asosida baholashga intilmoqda. Bu esa Yodgora Nasriddinovaning siyosiy merosini qayta ko‘rib chiqish va yangi ilmiy xulosalar chiqarishga zamin yaratadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari Yodgora Nasriddinovaning O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi sifatidagi faoliyati respublikaning siyosiy va ijtimoiy taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko‘rsatganini tasdiqlaydi. U o‘z vakolatlari doirasida qonunchilik faoliyatini takomillashtirish, davlat organlari ishini muvofiqlashtirish, ta'lim, sog‘liqni saqlash va madaniyat sohalarini qo‘llab-quvvatlash orqali mamlakat rivojiga munosib hissa qo‘shgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Yodgora Nasriddinovaning tarixiy merosini baholashda nafaqat siyosiy omillar, balki uning jamiyat taraqqiyoti, xotin-qizlar faolligi va davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishga qo‘shgan hissasini ham e'tiborga olish zarur. Shu nuqtai nazardan, u O‘zbekiston tarixida yirik davlat arbobi va ayol rahbar sifatida alohida o‘rin egallaydi.

Kelgusida O‘zbekiston Milliy arxivi, O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi hujjatlari, davriy matbuotlar asosida olib boriladigan yangi tadqiqotlar Yodgora Nasriddinovaning faoliyatini yanada chuqurroq va ilmiy asosda yoritish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro’yhati

1.O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi. O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi fondi (F. R-2452). – Toshkent.

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi. O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasi hujjatlari (tegishli fondlar). – Toshkent.

3. Конституция (Основной Закон) Узбекской ССР. – Ташкент: Узбекистон, 1978.

4. История Узбекской ССР. В 4-х томах. Т. 4. – Ташкент: Фан, 1971.
Очерки истории Коммунистической партии Узбекистана. – Ташкент: Узбекистон, 1974.

5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006.

6. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston tarixshunosligi. – Toshkent: Akademnashr.

7. O‘zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. – Toshkent: Sharq.

8. O‘zbekiston tarixi (XX asr). – Toshkent: Sharq.

9. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti nashrlari.
10. “Pravda Vostoka” gazetasi (1959–1970-yillar sonlari).
11. “Sovet O‘zbekistoni” gazetasi (1959–1970-yillar sonlari).
12. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi (1959–1969-yillar sonlari).
13. “O‘zbekiston tarix” ilmiy jurnali. Turli sonlar.
14. “Sharq yulduzi” jurnali. 1960–1970-yillardagi sonlar.